



American postmodern literature and its development

Dildora SADIKOVA¹

Navoi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

postmodernism,
modernism,
intertextuality,
fragmentation,
metafiction.

ABSTRACT

This article examines postmodernism as a cultural and intellectual trend, emphasizing its critique of conventional grand narratives and its resistance to categorization. Micro-narratives, fragmentation, and experimentation in philosophy, art, and literature are characteristics of postmodernism. The essay considers several important aspects of postmodernism, such as its emphasis on relativity in social, political, and cultural contexts, its rejection of absolute truths, and its use of intertextuality. It discusses how postmodernism has influenced critical ideas such as reader-response theory, deconstruction, and the fusion of high and low culture. The article demonstrates the various uses and importance of postmodernism in current discourse by examining the works of prominent intellectuals such as Jean-François Lyotard and Linda Hutcheon.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp28-33>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Amerika postmodern adabiyoti va uning rivoji

Kalit so'zlar:

postmodernizm,
modernizm,
intertekstuallik,
fragmentatsiya,
metafikshn.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada postmodernizm nazmi madaniy va intellektual yo'nalish sifatida ko'rib chiqilib, uning an'anaviy katta hikoyalarga tanqidiy munosabati va kategorizatsiyaga qarshi turishi ta'kidlanadi. Postmodernizmning xususiyatlari sifatida fragmentatsiya va falsafa, san'at va adabiyotdagi tajriba ko'rsatiladi. Maqolada postmodernizmning ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstlarda nisbiylikka urg'u berish, mutlaq haqiqatlarni rad etish va intertekstuallikdan foydalanish kabi bir necha muhim jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, postmodernizmning o'quvchi javobi nazariyasi, dekonstruksiya va yuqori hamda ommaviy madaniyatni birlashtirish kabi tanqidiy g'oyalarga qanday ta'sir ko'rsatgani muhokama qilinadi.

¹ Teacher, Navoi State University. E-mail: dilya.sadikova@list.ru

Американская постмодернистская литература и её развитие

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
постмодернизм,
модернизм,
интертекстуальность,
фрагментация.

В данной статье рассматривается постмодернизм как культурное и интеллектуальное течение, акцентируя его критику традиционных великих нарративов и сопротивление категоризации. Микро-нарративы, фрагментация и эксперименты в философии, искусстве и литературе являются характерными чертами постмодернизма. В статье рассматриваются несколько важных аспектов постмодернизма, таких как акцент на относительности в социальных, политических и культурных контекстах, отрицание абсолютных истин и использование интертекстуальности. Обсуждается влияние постмодернизма на критические идеи, включая теорию восприятия читателя, деконструкцию и слияние высокой и массовой культуры.

XX–XXI asr adabiyotshunosligi tarixiga nazar tashlasak, adabiyot taraqqiyotini ilmiy kuzatish jarayonida modernizm, syurrealizm, magik realizm, absurdizm, postmodernizm kabi oqimlarga; metaproza, intertekst, allyuziya, pastish, sarkazm, kinoya kabi terminlarga; eklektik, skeptik, ekssentrizm, kosmopolitizm, metafikshn kabi konseptlarga duch kelinadi. Ushbu termin va konseptlar postmodernizm yo'nalishida yaratilgan romanlar xususiyatlarini yoritib berishda, uning badiiy xususiyat va uslubiga oid muammolarga oydinlik kiritishda ko'mak beruvchi tarkibiy qism bo'lib xizmat qiladi.

“Modernizm” XX asrning birinchi yarmida san'at va madaniyatga hukmronlik qilgan harakatga berilgan nomdir. Modernizm san'atdagi katta to'lqin bo'lib, XX asrdan oldingi musiqa, rassomlik, adabiyot va me'morchilikdagi an'anaviy amaliyotlarini o'rnini bosgan. Bu o'zgarishlarning umumiy natijasi tajriba va yangilikka sodiq bo'lgan adabiyotni yuzaga keltirib chiqargan. Modernizmning eng yuqori nuqtasi o'tganidan keyin, u 1930-yillarda ancha chekinishga uchradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan, modernistik adabiyotning qabul qilingan normalariga qarshi chiqqan g'oya va uslublar seriyasi sifatida yuzaga kelgan adabiyot “Postmodern adabiyoti” deb nomlanadi. Uni Ikkinchi jahon urushidan to hozirgi kungacha bo'lgan davrning adabiyoti sifatida ham tasvirlash mumkin. U modernizmning ilgarigi shakllaridagi tajribalardan ajralib turadigan voqealar ketma-ketligining uzilishi va ong osti g'oyalardan kelib chiqqan doimiy ong oqimi bilan mashhurdir. Bu adabiyotning nomutanosib uslubidir. “Postmodern adabiyoti – bu asosan, lekin faqatgina emas, Ikkinchi jahon urushi davridan keyin rivojlangan uslub yoki tendensiya sifatida belgilanadigan, fragmentasiya, paradoks va shubhali rivoyatchilar kabi usullardan keng foydalanish bilan xarakterlanadigan adabiyotdir” [1] Postmodern asarlari ma'rifatparvarlik tafakkuriga va modernistik adabiyot yondashuvlariga qarshi munosabat sifatida ko'riladi. Ular badiiy asarlarda kollaj kabi fragmentasiyalangan shakllar va adabiyotda ataylab uzluksiz rivoyatlar orqali ilgari qabul qilingan tafakkur va ishonch tizimlarining parchalanishini ko'rsatish uchun ideologik ilhomlangan. Postmodernizm

modernizm nazmi bilan amaliyoti bir xil biroq , ammo bu uslubda xotirlash yo'li bilan amalga oshiriladi, afsuslanish emas. Shuning uchun o'tmishning yo'qolishi, mavjudlikning parchalanishi va shaxsiylikning yemirilishi uchun afsus qilish o'rniga, postmodernizm ushbu xususiyatlarni ijtimoiy mavjudlikning yangi shakli sifatida qabul qiladi. 1960-yillar o'rtalariga kelib, S'yuzan Sontag va Ihab Hassan kabi tanqidchilar postmodernizmning xususiyatlarini ajratishni boshlashdi. Ular "postmodernistlarning ishlari ataylab birlashmagan, ko'proq aniq 'ustalikli' bo'lmagan, ko'proq o'yinchan yoki anarxik, badiiy tugallik yoki birlikdan ko'ra tushunish jarayonlari bilan ko'proq qiziqadi", deb ta'kidlashdi.

Shunday qilib, modernizm va postmodernizm o'rtasidagi farq tarixiy farq yoki badiiy amaliyotlar to'plami emas, balki kayfiyat yoki munosabatdagi farq sifatida ko'riladi. Postmodern nasri o'zining aralashgan va birlashgan uslublari bilan realistik estetik ideologiyaning muammolashtirilishi yoki buzilishi jarayoni sifatida davom etuvchi jarayondir.[2]

Postmodern-metafiksiya (metafiction), ishonchsiz hikoyachi (unbelievable narration), o'z-o'zini aks ettiruvchilik (self-reflection), intertekstuallik (intertextuality), kinoya kabi xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oladi va ko'pincha tarixiy va siyosiy masalalarni mavzular sifatida ko'taradi. Bu eksperimental adabiyot uslubi 1960-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida Kurt Vonnegut, Tomas Pinchon, Uil'yam Geddis, Filip K. Dik, Ketli Aker va Jon Bart kabi yozuvchilar asarlari orqali paydo bo'ldi. Postmodern nazmi modern nazmiga butunlay teskari bo'lib ma'rifatparvarlik g'oyalariga aks munosabatda bo'lib bunda yozuvchilar ko'pincha hukumatga qarshi chiqish g'oyalarini olg'a suradi. Kanadalik adabiyotshunos Linda Xatcheonning fikriga ko'ra bu qarashlar natijasida, 1960-yillardagi siyosiy tamoyillar kontekstida adabiyot uslubining paydo bo'lganligini ko'rsatuvchi bir belgidir. Bu ta'sir, xususan, postmodern adabiyoti o'zi gapirayotgan siyosiy masalalarga nisbatan yuqori darajada o'z-o'zini aks ettiruvchi bo'lganligi orqali ko'riladi [3]

Birinchi va ikkinchi jahon urushlaridan so'ng jamiyatda yuzaga kelgan g'oyalar silsilasi va mafkuraviy to'qnashuvlar (xaos) adabiyotda postmodernizm shaklida o'z ifodasini topdi. Ya'ni, jamiyatdagi turli mafkuraviy portlashlar va qarama-qarshiliklar, o'zgarishlar va dunyoqarashlar xilma-xilligi, moddiy dunyoning ma'naviy olamga nisbatan ustun kelishi, odamlarning ijtimoiy va jinsiy tengligi, ilm-fan taraqqiyoti natijasida insonning koinotni o'zlashtirishi, kompyuter texnologiyalarining ixtiro qilinishi va kiber dunyoning kashf etilishi kabi bir qolipga sig'maydigan xaotik elementlar adabiyotda postmodernizmni yuzaga keltirdi.

Postmodern adabiyotining ilk namoyondalari sifatida Migel de Servantesning "Don Kixot" (1605–1615), Lorens Sternning "Tristram Shendi" (1760–1767), Jeyms Hoggning "Adolatli gunohkorning shaxsiy xotiralari va iqrorlari" (1824), Tomas Karleylning "Sartor Resartus" (1833–1834) va Jek Keruakning "Yo'lda" (1957) kabi asarlarni kiritish mumkin. Lekin postmodern adabiyoti xususan 1960-yillar va 1970-yillarda keng tarqalgan bo'lib, XXI asrda Amerika adabiyotida ham postmodern nazmida yozishning kuchli oqimi saqlanib qolgan, bunga Deyv Eggersning "Hayratlanarli dunyoviy dahoning yuraklarni ezuvchi" asari (2000) va Jenifer Eganning "Gunginagan qo'ng'iroq otryadiga" tashrif (2011) kabi postironik asarlari misol bo'la oladi. Bu asarlar postmodern shaklni yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shgan. [4]

Postmodern adabiyotning dastlabki yorqin namunalaridan ba'zilari 1950-yillarga to'g'ri keladi: Uilyam Gaddisning *The Recognitions* (1955), Vladimir Nabokovning *Lolita* (1955) va Uilyam Burroughsning *Naked Lunch* (1959) asarlari. Keyinchalik, bu uslub 1960–1970-yillarda mashhur bo'ldi, masalan, Jozef Xellerning *Catch-22* (1961), Jon Bartning *Lost in the Funhouse* (1968), Kurt Vonnegutning *Slaughterhouse-Five* (1969) kabi asarlar bilan davom etdi. Amerikalik yozuvchi Tomas Pynchonning 1973-yilda yozilgan *Gravity's Rainbow* romani postmodern adabiyotida alohida e'tiborga loyiq. M.Keith tahlilicha Pynchonning romani postmodern davrida yozilgan kitoblar orasida yarim asr davomida adabiy shohasar sifatidagi nufuzini yaxshi saqlab qolgan asar sifatida ajralib turadi.

Ammo bu nufuz murakkab, bunga Pulitser tajribasi misol bo'la oladi. Buyuk Britaniyaning mashhur tanqidchisi Toni Tanner, Pinchon romani chop etilganidan bir necha yil o'tib, uni "Ulysses dan keyingi muhim adabiy matn" deb ta'kidlagan. Haqiqatdan ham, Gravitasiyaning kamalagining adabiy tarixdagi ahamiyati shunchalik kattaki, tanqidchilar uni ko'proq Uil'yam Gaddisning *The Recognitions* (1955) yoki Jon Barthning *The Sot-Weed Factor* (1960) yoki keyinroq Devid Foster Uollesning *Infinite Jest* (1996) kabi postmodern epiklari bilan emas, balki Joysning *Ulysses* kabi buyuk asarlari bilan solishtirishga moyil. Darhaqiqat, Gravitasiyaning kamalagi (*Gravity's Rainbow*) zamonaviy klassika bilan ko'p jihatlarni o'rtoqlashadi: adabiy taqiqlarni tarixiy ravishda buzishi, uslubining g'ayriodatligi va ma'lumotlarni qamrab olish doirasi jihatidan unga mos yoki hatto undan oshadi. Aslida, *Gravity's Rainbow* postmodernizmda o'ynagan roli nuqtai nazaridan Ulysses modernizmdagi o'rniga o'xshash deb hisoblash mantiqan juda to'g'ri. [5]

Yangi avlod yozuvchilari namoyondalaridan: Devid Foster Uolles, Uilyam T. Vollmann, Deyv Eggers, Maykl Chabon, Zedi Smit, Chak Palanik, Jennifer Egan, Nil Geyman, Kerol Maso, Richard Pauers, Jonatan Letem va McSweeney's, *The Believer*, *The New Yorker* kabi nashrlar postmodernizmning yangi bosqichi yoki "post-postmodernizm"ni boshlab berishgan desak buladi. Bu yozuvchilarning aksariyati adabiyotda samimiyatga katta e'tibor berishni ta'kidlaydi. [6]

Kanadalik abid va adabiyotshunoslar Brayan MakkHale, Linda Xatcheon va Pol Maltbi kabi olimlar postmodern uslub faqat 1980-yillarga kelib to'liq "postmodern" atamasi bilan nomlanganini ta'kidlashgan. Toronto universiteti professori L. Xatcheon amerikalik adib va tanqidchi F.B. Jemsonning qarashlariga qarshi chiqib, postmodern shakllari tanqidiy uslub bilan yonma yon turishini olg'a suradi va ushbu nazmda kinoyaning o'rni ahamiyatli ekanligini, shu bilan birga postmodernizm hozirgi zamonni tarixdan ajratib qo'yish yoki tarixni tartibsiz va bog'lanmagan mozaikaga aylantirish o'rniga, uni qayta tushunib, yangi tanqidiy imkoniyatlarni taklif qilishi mumkinligini haqida o'z asarlarida yozgan. L. Xatcheon postmodern yo'nalishining uslublaridan bo'lgan metafiksiyaning yangi tarmog'i bo'lgan "gistografik metafiksiya" atamasini joriy etib, o'tmishni o'z talqinida ilgari suradigan, lekin ayni paytda o'zining, tarafkash va to'liq bo'lmagan haqiqatiga tanqidiy qaraydigan (ya'ni, o'ziga tanqidiy yondashadigan) adabiy matnlarni tasvirlash uchun ishlatgan (*Poetika*, 122–123). Shunday qilib, tarixiy metafikshn bizga tarixchilarning "obyektiv" o'tmishidagi noto'g'rilik va zo'ravonlikni tan olgan holda, o'tmish haqida konstruktiv gapirishga imkon beradi, biroq F. Jeymson aytganidek, to'liq chalkash va ajratilgan hozirgi holatda qoldirmaydi. [7]

Intertekstuallik – har bir ijodiy asar paydo bo'lishiga boshqa biror matn yoki boshqa unsurlar sabab bo'lishi mumkin, u yagona ijod mahsuli emas, balki o'zora bog'langan fikrlar va taassurotlarlar mahsulidir [8]. Shu sababli ham postmodern adabiyotini o'rganishda asosiy e'tibor intertekstualikka qaratiladi: ya'ni bir matnning (masalan, roman) boshqa bir matn bilan yoki adabiy tarixning murakkab to'qimasidagi o'zaro munosabatlari. Postmodern adabiyotda intertekstualik boshqa bir adabiy asarga ishora yoki parallel, bir asar bo'yicha kengaytirilgan muhokama, yoki bir uslubni qabul qilish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Postmodern adabiyotda bu ko'pincha ertaklarga ishora qilish shaklida uchraydi – masalan, Margaret Etvud, Donald Barthelm kabi yozuvchilarning asarlarida va boshqa ko'plab ijodkorlarda – yoki ilmiy-fantastik hamda detektiv adabiyot kabi ommabop janrlarga ishora qilish orqali namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda intertekstualik bir matnga oddiy bir ishoradan ko'ra murakkabroq shaklda bo'ladi. [9]

Postmodern adabiyoti bir necha xususiyatlardan biri bu fragmenteyshtn (fragmentation) bo'lib, bunda syujet, qahramonlar, mavzular, tasvirlar va faktlarga oid turli elementlar butun asar davomida bo'linib va tarqalib ketgan holda namoyon bo'ladi. [10] Yunon yozuvchisi Dimitris Lyakosning Z213: Exit asarida (postmodern adabiyotdagi bo'linishning asosiy namoyandalaridan biri) postmodern nazmining fragmenteyshtn (parchalanish) texnikasi yaqqol ko'rinadi. Ushbu xayoliy kundalikda deyarli telegrafik uslub qo'llanilib, aksariyat hollarda artikl va bog'lovchilar ishlatilmagan. Matn orasiga bo'shliqlar kiritilib, kundalik til she'riyat va Injilga ishoralar bilan aralashtirilgan, natijada sintaksis buzilishi va grammatikaning deformatsiyasi yuzaga keladi. Bu usul orqali qahramon va dunyo o'rtasidagi begonalik hissi yaratiladi. Tilning bu kabi o'ziga xos vositasi qahramonning tartibsiz dunyo ichida o'zining ichki qo'rquv va paranoyalarini o'rganishi jarayonini aks ettiruvchi noaniq sintaksis tuzilishini shakllantiradi.

XULOSA

Ko'rinib turibdiki, postmodernizm chegara bilmas, uslub tanlamas yo'nalish bo'lib boshqa oqimlardan farq qiladi. Postmodernizm universal, ideal va estetik g'oyadan voz kechib, eksperimental va o'ziga xos fikrlarni ilgari surishga qaratilgan oqim sifatida yuzaga kelgan. Postmodernizm, ko'pincha xaos nazariyasi bilan bog'lanadigan, katta hikoyalarni rad etib, mikrohikoyalarni afzal ko'radigan madaniy hodisadir. U nostal'giya va tasallini rad etib, taqdim etib bo'lmaydigan narsalarga e'tibor qaratadi. Jeymson, Habermas, Iglton va MakXeyl kabi tanqidchilar postmodernizmni "madaniy dominant" sifatida ko'rib, uni yagona uslub emas, deb baholaydilar. Postmodern adabiyoti an'anaviy ta'riflarga qarshi chiqib, dekonstruksiya va o'quvchi javob nazariyasi kabi tanqidiy nazariyalarni o'z ichiga oladi. U ijtimoiy masalalarni ta'kidlaydi, lekin biron-bir masalaga ustuvor ahamiyat bermaydi, nisbiylik va tajriba adabiy vositalarini qabul qiladi. Postmodernizm tarix va siyosat bilan chuqur aloqaga ishora qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F.M. Xajiyeva AMERIKA POSTMODERN ADABIYOTIDA BIOGRAFIK ROMAN POETIKASI (J.PARINI, M.KANNINGHEM VA L.LALAMI ASARLARI MISOLIDA) DSc darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi, Buxoro 2022, B.20-25
2. Linda Hutcheon (1988) A Poetics of Postmodernism. London: Routledge, pp. 200-201.

3. Linda Hutcheon (1988) *A Poetics of Postmodernism*. London: Routledge, pp. 202-203.
4. Linda Hutcheon (1988) *A Poetics of Postmodernism*. London: Routledge, pp. 204-205.
5. M. Keith Booker, Thomas Pynchon's novel "Gravity's Rainbow," a half-century old today, has never seemed more relevant. February 28, 2023; <https://lareviewofbooks.org/article/history-is-hard-to-decode-on-50-years-of-thomas-pynchons-gravitys-rainbow/>
6. Maltby, Paul. *Dissident Postmodernists: Barthelme, Coover, Pynchon*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1991. p. 14.
7. Tore Rye Andersen (2001) "Ned med oprøret! – David Foster Wallace og det postironiske Archived 2016-08-18 at the Wayback Machine" in *Passage*, 37, 13-25. Archived 2016-08-18 at the Wayback Machine
8. Sadikova Dildora Nizomovna, . (2024). THE CATEGORY OF INTERTEXTUALITY: ALLUSION, QUOTATION, SYMBOL. *International Journal Of Literature And Languages*, 4(11), 46–54. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume04Issue11-11>
9. Graham Allen. *Intertextuality*. Routledge, 2000. ISBN 0-415-17474-0. B 200.
10. H.T Lehmann, *Postdramatic Theatre*, B. 88. Rutledge 2005.